

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI “KO‘Z” LEKSEMASI ASOSIDA
SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLARDA TASDIQ VA INKOR
KATEGORIYALARINING IFODALANISHI**

Sayidazimova Muhtaramxon Saidxoshimxon qizi

Oliy toifali ingliz tili fani o‘qituvchisi
muhtaramxonsayidazimova@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14649984>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ingliz tilida dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan “o‘zbek va ingliz tillaridagi “ko‘z” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlarda tasdiq va inkor kategoriylarining ifodalanishi”ni o‘rganib chiqildi. Kundalik nutqimizda foydalaniladigan frazeologizmlar turli xil ma’nolarni ifodalaydi hamda ularning tasdiq yoki inkor ma’nolarini ifodalashiga qarab tilimizda ishlatamiz. Ushbu tasdiq yoki inkor ma’noni ifodalovchi iboralardan unumli foydalanilganda tinglovchiga fikrimizni to‘g‘ri va tushunarli bayon qilishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada tasdiq va inkor ma’noni ifodalovchi frazeologizmlar hamda ularga oid misollar badiiy asarlardan namunalar tahlil qilingan.

KALIT SO‘ZLAR: negativ, frazema, ibora, frazeologizmlar, so‘z yasalishi, affiksatsiya, leksema, inkor ma’no, inkor ma’noli frazeologizmlar

ABSTRACT

In this article, one of the current topics in English, "Expression of affirmative and negative categories in phraseology formed on the basis of the lexeme "eye" in Uzbek and English languages" was studied. Phraseologisms used in our daily speech express different meanings and we use them in our language depending on whether they express affirmative or negative meanings. When these affirmative or negative expressions are used effectively, they help the listener to express our thoughts correctly and clearly. Also, in the article, phraseologisms expressing the meaning of affirmation and negation, as well as examples of them, samples from artistic works are analyzed.

KEY WORDS: negative, phrase, phraseology, word formation, affixation, lexeme, negative meaning, phraseology with negative meaning

Hayotimizda frazeologizmlar badiiy ma’no ifodalashda, fikrimizni aniq va tushunarli qilib yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar turli tillarda so‘zlashuvchi turli xalqlarning dunyoqarashi va urf-odatlaridan kelib chiqadi, yillar davomida o‘zgarib, mukammallashadi. Tipologik jihatdan turli tizimlarga mansub bo‘lgan o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar ba’zan mazmunan mutanosib bo‘lsa, ba’zan ular aynan bir xil bo‘lmaydi. Ba’zan



ularning shakli o'zaro mos kelsa-da, ma'nosi umuman boshqacha va yoki aksincha, ma'no jihatdan mos kelganda, shakli to'g'ri kelmasligi mumkin. Bunga sabab aynan o'sha xalqning o'ziga xos tabiatiga bog'liqdir.

O'z ichki tuzilishida turli ma'nolarni mujassamlashtirgan frazeologizmlarda tasdiq va inkor shakllarini ifodalanishini ham kuzatish mumkin. Biz quyida berayotgan maqolamizda "ko'z" leksemasi asosida shakllangan iboralarda tasdiq va inkor kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalashda nol shakl (tasdiq), -ma bo'lishsizlik shakli, emas, na yordamchi, yo'q mustaqil so'zlari (inkor) ishtirok etadi:

Majlis yarim kechagacha cho'zildi (O.Muxtor).

Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringunga qadar u amirning kelishiga ishonmagan edi (Oybek).

Na xotin, na farzand ko'rmagan, kimsasiz bechora bir yigit (Uyg'un). Mening farzandim yo'q, gulbog'larim yo'q. (S.Nur.)

Quyida tasdiq ma'nosi mavjud bo'lgan iboralarni ko'rib chiqamiz.

Misol uchun, o'zbek tilidagi "ko'zga ko'rinmoq" iborasi "tanilmoq", "o'ziga e'tiborni jalb qiladigan bo'lmoq" degan ma'nolarni ifodalaydi.

U kombinatning ko'zga ko'ringan ip yigiruvchisi edi (Said Ahmad).

Onasi dunyodan o'tgan paytda Nazokatxon ancha balog'atga yetib, ko'zga ko'rinib qolgan edi ("Bo'rondan kuchli" Sh.Rashidov)

Ingliz tilida ushbu ma'noni ifodalash uchun "eye-catching" yoki "catch somebody's eyes" frazeologizmi qo'llanadi.

She wore an eye-catching blouse.

Bu frazeologizmlarda tasdiq ma'no ifodalanyapti. Shuningdek, ba'zi iboralar borki, ularda inkor shakllar kelsa-da, tasdiq ma'nolarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "ko'zdan qochirmaslik" iborasida -ma bo'lishsizlik qo'shimchasi bor, lekin mazmun jihatdan "qarab turmoq", "poylamoq" ma'nosini bilib olishimiz mumkin. Ingliz tilidagi "keep your eye pulled" frazeologizmi ham shu ma'no uchun xizmat qiladi.

...Kimda gumoning bo'lsa, uni **ko'zdan qochirma**, iziga tush! (Oybek).

While his partner robbed the bank, he **kept his eye pulled** for the police.

Frazeologizmlarni o'rganish jarayonida tasdiq shakldan ba'zan inkor ma'no ifodalaydigan iboralarni ham o'rgandik. Misol uchun, "ko'zi ko'r, qulog'i kar" iborasi "hech narsani ko'rmaslik, eshitmaslik" inkor ma'nosini beryapti.

- **Ko'zing ko'r, qulog'ing karmi**, - Qodirov cho'g'ni bosgan kishiday sapchib o'rnidan turdi, - Oltinsoy sha'niga isnod keltirganini bilasanmi, hammaning og'zida duv-duv gap ("Bo'rondan kuchli" Sh.Rashidov)



Ingliz tilida ham aynan ushbu ibora mavjud boʻlmasada, uning alohida ikki xil koʻrinishi mavjud. “turn a deaf ear to something”, yoki “fall on deaf ears”, yaʼni biror narsaga qulogʻini kar qilib olmoq, eʼtiborsiz qoldirmoq maʼnolarini anglatadi. Misol uchun,

I told Mark to stop parking his car in front of our drive, but he just **turned a deaf ear to it**.

Ikkinchi iboramiz esa “turn a blind eye to something” boʻlib, oʻzbek tilidagi “koʻz yummoq” frazeologizmgiga mos keladi hamda koʻrmaganga olmoq maʼnosini ifodalaydi.

The boss knows that we often waste time chatting, but she just **turns a blind eye to it**.

Rahbarimiz koʻp vaqtimizni suhbatlashib oʻtkazishimizni bilsada, buni koʻrmaganga oladi., yaʼni ushbu gap tarkibida –ma inkor qoʻshimchasi boʻlsada gap tasdiq maʼnoni ifodalagan.

Yana boshqa iboralarni koʻrib chiqsak, “koʻz koʻrib, quloq eshitmagan ” frazeologizmida –ma boʻlishsizlik shakli bilan “hayotda uchratmagan” kabi tarjima qilinib, inkor maʼnoni ifodalayapti.

Birdan koʻz koʻrib, quloq eshitmagan bir jonivorni koʻrgandek, hayron boʻlib, sekin oʻrnidan turdi. (Guldasta)

Gap tarkibida inkor maʼnoni ifodalovchi ibora ishlatilgan, ammo gapning umumiy mazmuniga taʼsir koʻrsatmagan.

Biz yuqorida nutqimizda ishlatiladigan baʼzi iboralarni koʻrib, tahlil qilishga harakat qildik. Berilayotgan fikrimizni aniq va tushunarli boʻlishi uchun frazeologizmlardan foydalanilsa, gap yanada mazmundor boʻlishga hissa qoʻshiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (references)::

1. Geoffrey K. Pullum, Rodney Huddleston “The Cambridge Grammar of the English Language”. Cambridge university press. 2002. Page 1687.
2. Jennifer Seidl. W.McMordie “Oxford pocket English idioms”. Oxford university press. 1992. Page 222
3. Iskandarova Sh, Qurbonova B. Tilshunoslik nazariyasi. – Fargʻona. 2020. – 123 b
4. Sh.Rahmatullayev. Oʻzbek tilining qisqacha frazeologik lugʻati. –Toshkent. 1964. – 86-90 b
5. Sh.Rashidov “Boʻrondan kuchli” badiiy asari.
6. www.google.fr
7. www.google.com
8. www.ziyonet.uz

